

TASHMETOV TUXTASIN XUDAYBERGANOVICH

**MAFKURAVIY
JARAYONLARNING
TIZIMLI TAHLILI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TASHMETOV TUXTASIN XUDAYBERGANOVICH

**MAFKURAVIY JARAYONLARNING
TIZIMLI TAHLILI**

(O'quv qo'llanma)

Toshkent
«ZEBO PRINT»
2024

UO'K 130.3;321

KBK 87.3;66.3

T-51

Tashmetov T. X. Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili [Matn]. –
T.: "ZEBO PRINT", 2024. 280 b.

Mas'ul muharrir:

Sh.N.Turayev – *Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, falsafa fanlari nomzodi, dotsent.*

Taqrizchilar:

O'G.Tilavov – *O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) markaz direktori, falsafa fanlari doktori;*

N.A.Nazarov – *Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrası professori, falsafa fanlari doktori.*

Ushbu o'quv qo'llanmada, tarixiy taraqqiyot va uning g'oyaviy – mafkuraviy mezonlari, davlat va jamiyat qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasi davlat va jamiyatimiz hayotidagi o'rni, milliy g'oya va mafkuraning dunyoviy xarakteri, islom dinining axloqiy qadriyatlari tizimida shaxs mas'uliyatining diniy va dunyoviy talqini, globallasuv davrda inson ongi va qalbi uchun g'oyaviy-mafkuraviy kurashning asosiy jihatlari, axborot-kommunikatsiya tizimi mafkuraviy ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida, uzluksiz ta'lim tizimining mafkuraviy tarbiya jarayoni bilan o'zaro bog'liqligi, milliy g'oya – mafkuraviy immunitetning asosi, milliy taraqqiyotda g'oyaviy-mafkuraviy xavfsizlik va murosa masalasi, jamiyatni demokratlashtirish va mamlakatni modernizatsiyalashtirishda siyosiy partiyalarning ro'li, hozirgi dunyodagi g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning xususiyatlari, global korrupsiya – ijtimoiy-madaniy inqirozning oqibati sifatida, mahalla – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda asosiy ko'makchi institut haqida ma'lumotlar berilgan.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartiga muvofiq, o'qitish jarayonida sinovdan o'tgan mualliflik ishlanmalari asosida yozilgan. Oliy o'quv yurtlari talabalari, professor-o'qituvchilar hamda mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahliliga qiziquvchi keng kitobxonlarning barchasiga mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537 - sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-780-31-8

KIRISH

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va yangilanishlar jarayonida milliy mafkuranirivojlantirishni taqozo qilmoqda. Shu bois, O'zbekistonda ta'limning ijtimoiylashuviga alohida e'tibor berilib, o'qitilayotgan fanlarning mazmunini zamon talablariga moslashtirilishi bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi va "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlarida belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayonida o'z ifodasini topmoqda.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlar, turli axborot xurujlari mazmun-mohiyatini anglash, xalqaro terrorizm va ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik va odam savdosi, narkobiznes, "ommaviy madaniyat" kabi turli xavf va tahdidlarga qarshi kurashishda kuchlarni birlashtirish va ularni umummilliy harakat darajasiga olib chiqish dolzarb jihatlardan biriga aylanmoqda.

Shu boisdan, mamlakatimizni bugungi tez taraqqiy etib borayotgan dunyoga mos ravishda rivojlantirish, jamiyat a'zolarini milliy yuksalish yo'lida yanada birlashtirish va safarbar etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi kunda, dunyoviylik va diniylikning sog'lom muvozanatini ta'minlash, insof, vijdon, diyonat kabi axloqiy qadriyatlarga tayanib yashash va faoliyat yuritishni fuqarolarning dunyoqarashi va xatti-harakatiga singdirishni taqozo etmoqda.

3-MAVZU: DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHINING G'OYAVIY-MAFKURAVIY MASALALARI

Reja:

1. Milliy g'oyaning davlat va jamiyat qurilishiga doir mazmunini yoritish masalalari.
2. G'oyaviy-mafkuraviy ishlarni tizimlashtirish milliy mafkurani xalqchillashtirish omillari sifatida.
3. Mafkurada manfaatdorlik va ishonch-e'tiqod munosabati.

1. Milliy g'oyaning davlat va jamiyat qurilishiga doir mazmunini yoritish masalalari

Har qanday ijtimoiy-siyosiy hodisa, muqarrar ravishda, jamiyatning g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlariga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'ladi. Ularning barcha yo'nalishlari jamiyatning muayyan siyosiy tizimiga, davlat va jamiyat qurilishiga borib taqaladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, davlat va jamiyat qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari boshqa sohalarni umumlashtiruvchi ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, har bir ijtimoiy makon va tarixiy zamondagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar davlat va jamiyat qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy mazmunida integratsiyalashgan va universallashtirilgan tarzda namoyon bo'ladi.

Shu jihatdan, ijtimoiy hayotdagi barcha o'zgarishlar muayyan g'oyalar asosida amalga oshadi. Shunga ko'ra, xalqimiz va mamlakatimizning bugungi va istiqboldagi taraqqiyotini ta'minlashda mustaqillik yillari shakllanib, rivojlanayotgan milliy mafkura muhim o'rin tutadi. Zero, fikr asosida – g'oya, g'oya asosida esa mafkura shakllanadi. Ya'ni, insonlar fikran biror zarur ishni mo'ljallab, uni amalga oshirishga qat'iy ahd qilsa, bu g'oya bo'ladi. G'oya aniq inson, guruh, millat yoki jamiyatning hayotiy manfaat va maqsadlarini ifodalab, ularning ishonch-e'tiqodlari va faoliyatiga asos bo'lsa, mafkuraga aylanadi. Mafkura – turli guruh, toifa va